



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziyo ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-77-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

2021-yil g‘alla hosilini yetishtirish va o‘rib-yig‘ib olishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar hamda erishilgan yutuqlar, shuningdek, 2022-yil g‘alla hosili uchun boshqqli don ekinlarini ekishga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida

Viloyatda 2021-yil g‘alla hosilini yetishtirish va o‘rib-yig‘ib olishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar hamda 2022-yil g‘alla hosili uchun boshqqli don ekinlarini ekishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha topshiriqlar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari U.To‘rayevning hisoboti xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligini va bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining yig‘ilishi 2021-yil 12-avgust kuni ZOOM dasturi orqali o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda 2021-yil hosilidan boshqqli don yetishtirishda gektaridan o‘rtacha 57,1 sentnerdan hosil olinib, yalpi ishlab chiqarish hajmi 518,4 ming tonnani, shundan davlat xaridi uchun 214,1 ming tonna don topshirilganligi, g‘allachilik klasterlari omborlarida 85,9 ming tonna hamda fermer xo‘jaliklari ixtiyorida esa 218,4 ming tonna g‘alla qoldirilganligi inobatga olinsin.

3. 2021-yil hosilidan boshqqli don yetishtirishda g‘alla parvarishida agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida va sifatlari tashkil etishda viloyatning Jarqo‘rg‘on, Qiziriq, Muzrabot va Sherobod tumanlarida bir qator xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi;

viloyatda 2021-yil g‘alla hosili yetishtirish xarajatlariga ajratilgan imtiyozli kreditdan 131,7 mlrd. so‘mi so‘ndirilmay turganligi qayd etilsin.

4. Angor (Sh.Abdullayev), Jarqo‘rg‘on (B.O‘roqov), Qiziriq (I.Yusupov), Muzrabot (E.Alimov), Sherobod (Z.Davlatov) tumanlar hokimlari “Barakali Dunyo-M eksporti” MChJ, “Surxon boshqqli don” MChJ, “Sarodon Jarqo‘rg‘on” MChJ g‘allachilik klasterlari rahbarlari bilan birgalikda 10 (o‘n) kun muddat ichida kredit mablag‘larini to‘liq so‘ndirish choralarini belgilasinlar.

Amaldagi tartibga ko‘ra kredit qaytarilmagan holatda 2022-yil hosili uchun g‘alla yetishtirish xarajatlariga imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilmasligi eslatib o‘tilsin.

5. Tumanlar hokimlariga:

uch kun muddat ichida 2022-yil hosili uchun boshoqli don ekinlarini navlar bo‘yicha joylashtirish (razmesheniya)ni dala konturlari, fermer xo‘jaliklari kesimida tayyorlab, qarorlari bilan tasdiqlasin;

g‘allani navlar bo‘yicha joylashtirish (razmesheniya)da bitta konturda ikki yildan ortiq ekilishiga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratsin;

2022-yil g‘alla ekish uchun yer tayyorlash, tekislash va ekish grafiklarini ishlab chiqish hamda g‘alla ekish tadbirlarini joriy yilning 25-oktabrigacha to‘liq yakunlash choralarini belgilasin.

6. Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (M.Murodov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (E.Qorjovov)ga tumanlar hokimliklari va g‘allachilik klasterlari bilan birgalikda avgust oyining uchinchi o‘n kunligida har bir tumanda alohida reja-jadval asosida g‘allachilik klasterlari, fermer xo‘jaliklari va g‘alla ekish otryadlari a’zolari ishtirokida 2022-yil hosilidan g‘alla ekish uchun yer tayyorlash, ekish agrotexnikasi bo‘yicha o‘quv-seminarlari o‘tkazilishini ta’minlash;

10 (o‘n) kun muddat ichida davlat xaridi uchun boshoqli don topshirish bo‘yicha Don korxonalari va g‘allachilik klasterlari o‘rtasida kontraktatsiya shartnomalari hamda g‘allachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida fyuchers shartnomalari tuzilishini nazoratga olish;

g‘alla ekish tadbirlarini tasdiqlangan Grafik asosida o‘tkazishni kunlik monitoring asosida yuritish va Grafikdan orqada qolish holatlari bo‘yicha viloyat hokimligida o‘tkaziladigan qishloq xo‘jaligi masalalariga bag‘ishlangan selektor yig‘ilishlarida muhokamasini tashkil etish;

g‘alla ekish bilan birgalikda har bir gettariga 100 kg dan fosforli va 50 kg dan kaliyli mineral o‘g‘itlar berilishi choralarini ko‘rish topshirilsin.

7. “Amu Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (T.Alimov), tumanlar Irrigatsiya bo‘limlari va SIULar rahbarlari:

g‘alla maydonlarini sug‘orish uchun yetkazib beriladigan suvdan samarali foydalanish hamda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilishini ta’minlasin;

bir hafta muddatda boshoqli don ekinlarini sug‘orish grafiklarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, g‘alla maydonlarini suv bilan ta’minlash hamda g‘alla maysalarini to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

8. “Surxondaryodonmahsulotlari” AJ (Sh.Yusupov), “Sho‘rchidon-mahsulotlari” AJ (S.Astanaqulov) Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (E.Qorjovov) tumanlar hokimliklari va g‘allachilik klasterlari bilan birgalikda:

2022-yil hosili uchun ekiladigan kuzgi boshoqli don ekinlarining urug‘larini yetarli

miqdorda nav va avlodlar bo‘yicha tozalash, saralash, dorilash, qoplash hamda sertifikatlash ishlarini 2021-yil 30-avgustga qadar yakunlasin;

sug‘oriladigan maydonlarda asosan birinchi va ikkinchi reproduksiyali urug‘lik don ekilishini ta’minlasin.

9. “Agrobank” ATB Surxondaryo viloyati boshqarmasi (Sh.Rajabov) 2022-yil hosilidan g‘alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kredit mablag‘lari olish maqsadida Qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga joriy yilning 5-sentabrigacha, keyinchalik har oyning 5-sanasigacha kredit buyurtmasi berilishini ta’minlasin.

10. Viloyatdagi G‘allachilik klasterlari rahbarlari

g‘alla yetishtirish bilan bog‘liq agrotexnik tadbirlar muddatlariga muvofiq kredit mablag‘larini ishlatilishini hamda kreditdan erkin foydalanishini, moddiy resurslar yetkazib beruvchilarni va xizmat ko‘rsatuvchilarni ixtiyoriy tanlashini yo‘lga qo‘yish chorasini ko‘rsin;

g‘allachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida 2022-yil hosilidan boshoqli don mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha fyuchers shartnomalariga muvofiq g‘allachilik klasterlarining o‘ziga topshiriladigan don hajmini tovar xomashyo birjasida sotiladigan narxdan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lanishini ta’minlasin.

11. Qiziriq tumani hokimligi (I.Yusupov) joriy yil davomida barcha tumandagi klasterlar va Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zolari hamda boshqa mutasaddilar ishtirokida alohida muhokama yig‘ilishini o‘tkazsin.

12. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakunida tegishli mansabdar shaxslar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Artiqov) zimmasiga yuklansin.

14. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Кенгаш раиси



Bobolov T.A.